

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR

Nematova Shaxlo Egamberdiyevna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Insoniyatning XXI asrga qadami uning barcha faoliyatlaridagi globallashuv bosqichiga to'g'ri keldi. Globallashuv jarayoni, insonlarni hozirgi zamon texnikasi rivojlangan hamda yangi texnologiyalar tufayli axborotning yagona muhitida faoliyat ko'rsatishi lozimligini uqtirmoqda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolarni tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: texnologiya, innovatsiya, modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish, kichik biznes.

Abstract: Humanity's step into the 21st century coincided with the stage of globalization in all its activities. The process of globalization makes people aware of the need to function in a unified information environment thanks to modern technology and new technologies. In this article, we will analyze the problems of human capital management in the digital economy.

Key words: technology, innovation, modernization, digital economy, production, small business.

Аннотация: Шаг человечества в XXI век совпал с этапом глобализации во всей его деятельности. Процесс глобализации заставляет людей осознавать необходимость функционирования в единой информационной среде благодаря современной технике и новым технологиям. В этой статье мы проанализируем проблемы управления человеческим капиталом в цифровой экономике.

Ключевые слова: технологии, инновации, модернизация, цифровая экономика, производство, малый бизнес.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollari ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so'nggi yillarda umumiy tarzda "modernizatsiyalash" tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son bilan qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda asosiy ustuvor vazifalaridan biri—milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish belgilangan.

Jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni "yangi iqtisodiyot"ni vujudga keltirdi. Kam o'rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kompaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste'molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va sun'iy intellektning joriy etish raqamli ko'nikmalarni shakllantirishga turtki berishi va natijada inson kapitalini raqamli rivojlantirish salohiyatini oshirishi bilan bog'liqligini asoslash tadqiqotimiz maqsadlaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion boshqaruv holatini samarali reyting baholash tizimi hamda uni amalga oshirish mexanizmining yo'qligi iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni raqamli transformatsiyasining hozirgi holatini tahlil qilishga to'sqinlik qilmoqda. Vaholanki,



raqamli iqtisodiyot va innovatsion boshqaruv holatini samarali baholash tizimi hamda uni amalga oshirishning idoralararo mexanizmining yo'qligi iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni raqamli transformatsiyasining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

Raqamli iqtisodiyot – bu internet iqtisodiyoti, elektron biznes va elektron tijorat yordamida ishlab chiqilgan va sotilayotgan raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Bu yerda tovarlar va xizmatlar elektron formada sotiladi. Raqamli iqtisodiyotda xizmatlar va tovarlar uchun to'lovlar ko'pincha elektron pullarda raqamli banklar orqali amalga oshiriladi.

Raqamli iqtisodiyot - bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayotiy qulayliklarni ta'minlaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish tizimi bo'lib elektron tijorat shaklida rivojlanadi. Keyingi yillarda jahon iqtisodiy adabiyotida keng tarqalgan yangi "Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot" yoki "Intellectual iqtisodiyot" tushunchasi ilmiy bilimlar majmuasi va ular(bilimlar, g'oyalar, kashfiyotlar, texnologiyalar, chizmalar, usullar va boshqalar) yozilgan moddiy ma'lumot tashuvchilar(disketlar, fleshkalar, internet resurslari va boshqalar) moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib qolishini anglatadi. Shu munosabat bilan biz sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini tahlil qilamiz, bu esa inson kapitalining raqamli rivojlantirishga boshqacha tarzda ustuvor ahamiyat berish imkonini beradi. Inson kapitalining potensial imkoniyatlari, birinchi navbatda, inson hayotining har bir bosqichlari(oila instituti, ijtimoiy va kasbiy institutlar)da inson kapitalini rivojlantirish shartlarini belgilaydigan institutsional muhitga bog'liq. Shu bois, inson kapitalini raqamli rivojlantirishning asosiy funksiyalari turli institutlar (ma'lum bir institutsional tizimga xos bo'lgan ta'sir etuvchilar), texnologiya (jamiyat va iqtisodiyotdagi texnologiya va innovatsiyalar darajasi), ta'lim (hayot davomida ta'lim olish muhiti), sog'liqni saqlash (sog'liqni saqlash tizimining sifati va faol hayot tarzining davomiyligi), jamoat farovonligi (ijtimoiy va shaxsiy farovonlik darajasi) kabi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston–2030" milliy strategiyasida ham ta'limningturli bosqichlarida hamda turli yoshdagi aholi toifasi uchun raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha bir qator maqsadli yo'nalishlar belgilangan. Jumladan, aholining barcha qatlamlarida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- keksa va o'rta yoshdagi aholiga internet jahon axborot tarmog'ida ishlash, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni o'z ichiga olgan kompyuter savodxonligi kurslarini tashkil etish;
- axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish;
- raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish;
- aholi o'rtasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish sohasida yirik IT korxonalarni jalb qilgan holda davlat xususiy sheriklik mexanizmlarini tashkil qilish;
- viloyat va shaharlarda raqamli ko'nikmalar darajasidagi bo'shliqni bartaraf etish maqsadida respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan o'quv markazlarini tashkil etish

Umuman olganda raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishning muhim xususiyati bu tegishli raqamli ko'nikmalar va foydalanuvchilarning ijtimoiy faollik darajasini talab qiluvchi raqamli ta'limning turli shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi. Inson kapitalini raqamli rivojlantirish uchun ta'lim muhitini yangilash raqamli ta'lim texnologiyalari va bir vaqtning o'zida ta'lim yechimlarini individuallashtirish darajasini oshirish bilan chambarchas bog'liq.

Yangi bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotni tushunish, uning tub mohiyatini o'rganishdan, ya'ni oxirgi mahsulotda (yoki ko'rsatiladigan xizmatda) aks etgan bilim yoki innovatsiyalarning mohiyatini tushunishdan boshlanadi. Zamonaviy nazariya asosida tushunilsa, innovatsiya bozorda amalga oshiriladigan, amaliyotda qo'llaniladigan yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayon natijasida amalga oshadigan innovatsion faoliyatning yangi yoki mukammallashtirilgan mahsuloti sifatidagi pirovard natijasi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, bu davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2017 yil, 32-33 betlar.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M.To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2015 yil, 5-bet.
3. M.Butaboyev, N.Maxmudov, F.Mulaydinov, R.Egamberdiev. Raqamli iqtisodiyot asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020, 11-bet.
4. Ergashovna, A.O., & Egamberdievna, N.S.(2022). The role of human capital in economic development. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(2), 100-106
5. Нематова, Ш. Э. (2023). Деятельность субъектов малого предпринимательства в экономике Узбекистана и вопросы их развития. Journal of new century innovations, 26(4), 172-178.
6. Нематова, Ш. Э. (2023). Важные аспекты формирования инвестиционной среды в Узбекистане. Scientific Impulse, 1(9), 499-505.
7. Nematova, S. (2022). Structural changes in the innovation-investment entrepreneurship of the economy of the region. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 184-187

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.